

SHIMOLIY AFG'ONISTON O'ZBEK SHEVALARIDA QO'LLANADIGAN MAQOLLARNING SEMANTIK-STRUKTUR TAHLILI.

Emadi Nesar Ahmad

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti
O'zbek tili va adabiyot ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

Email: nesarahmademadi@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11670044>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shimoliy Afg'oniston o'zbeklarining og'zaki muloqotida qo'llanadigan xalq maqollari tahlil qilinib, ushbu hududda yashovchi boshqa millat vakillarining paremiologik birliklari bilan o'xsha va farqli jihatlari qiyoslanib, semantik-struktur xususiyatlari o'rganildi.

Kalid so'zlar: maqol, leksik, semantik, yorqin, sayqal, tabiyat, donolik, tajriba.

SEMANTIC-STRUCTURAL ANALYSIS OF PROVERBS USED IN UZBEK DIALECTS OF NORTHERN AFGHANISTAN.

Abstract. In this article, the folk proverbs used in the oral communication of the Uzbeks of Northern Afghanistan were analyzed, their similarities and differences were compared with paremiological units of representatives of other nationalities living in this region, and their semantic-structural features were studied.

Key words: proverb, lexical, semantic, bright, polished, nature, wisdom, experience.

СЕМАНТИКО-СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ ПОСЛОВИЙ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В УЗБЕКСКИХ ДИАЛЕКТАХ СЕВЕРНОГО АФГАНИСТАНА.

Аннотация. В данной статье проанализированы народные пословицы, используемые в устном общении узбеков Северного Афганистана, сопоставлены их сходства и различия с паремиологическими единицами представителей других народностей, проживающих в этом регионе, а также изучены их семантико-структурные особенности.

Ключевые слова: пословица, лексическая, смысловая, яркая, отполированная, природа, мудрость, опыт.

Maqol O'zbek xalq og'zaki ijodining qadimgi ommaviy janrlaridan biri bo'lib, ular xalqning dunyo qarashi jamiyatda bo'lgan munosabati, va axloqiy jihatlardan o'z ifodasini topgan. Uning yaratilishi va sayqal topishida insonlarning juda katta hunari, mehnati va iqtidori sarflangan.

Xalq donoligining yorqin ifodasi bo'lgan maqollar jamiyat va tabiyat hodisalariga nisbatan bo'lgan insonlarning munosabati tufayli saqlanib kelmoqda. Shu o'rinda aytishimiz mumkin maqol, kichkina jumladan iborat bo'lsada u ming so'zdan ko'proq narsani aytishi mumkin. axloq, haqiqat, donolik, do'stlik kabi hikmatlar yordamida ulug'lanadigan qadriyatlaridir. Ayni holda O'zbek tili vakillari o'ziga xos qobiliyat, tafakkur, adabiyot va madaniyatlarini ifodalaydigan qisimlardir.

Shu jumladan Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab maqol Koshg'ariyning "Devonul lug'otit turk" asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham O'zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi. Shuningdek, maqol Koshg'ariy asarida "Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin"; "Odam olasi ichida, mol olasi tashqarida" deb keltiradi.

Xuddi shu kabi Shimoliy Afg'oniston O'zbeklari o'rtasida ishlatiladigan maqollar ham azaldan buyon xalq uchun xizmat qilib kelmoqda. Bu til sohiblari asrlar o'tib o'z hayoti hamda ta'limiy tajribalari asosida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan sof hikmatdir. Ular jamiyatning to'plangan bilim tajribalarini aks ettirib, va xatti- harakatlar, qaror qabul qilish ijtimoiy o'zaro munosabatlar uchun qo'llanma bo'lib vazifa bajaradi. Shunday bo'lsa, quyidagi misollarni ko'rishimiz mumkin.

Bilganga o'yin, bilmaganga qiyin. Bilgan tajribali shaxs uchun har bir ish o'yin kabi oson. bilmagan shaxsga esa juda qiyin, uning uchun mashaqqatli bo'lib ko'rinadi degan ma'noga nisbatan ishlatiladi.

Bilmagan ayb, so'ragan ayb emas. (بيلمگن عيب سورە گن عيب ايمس) kishiki g'ururlanib bilaman deb bilmasa ayb, sharmandalikdir, ammo biror kishi bilmagan narsasini so'rab olsa hechqisi yo'q degan ma'noda ishlatiladi.

Ilmga amal qilmagan mullo emas. Ilm o'rganib unga amal qilmasa foydasiz, boshqalarga o'rgatib o'zi amal qilmagan bilimdon bo'la olmaydi degan ma'noga ishlatiladi.

Kishining husniga baho berma, aqliga baho ber. Har bir kishining tashqi ko'rinishiga emas, balki fikirlash doirasiga, amaliga, gaplarining ijobiylikiga baho berish maqsadiga ishlatiladi.

Ko'p yurganga ergashma, ko'p bilganga ergash. Kuchalarga har xil yurgan odamga qo'shilmalik, hayotni tajriba qilgan, dunyo ko'rgan, shaxsga qo'shilish va unga hamroh bo'lishlik maqsadiga nisbatan ishlatiladi.

Aytgan joyga erinma, aytmagan joyga ko'rinma. Chaqirilgan to'y marosimlarga erinmasdan borish, taklifni qabul qilish. ammo xabar qilinmagan joylarga bormaslik, o'zini qadrsiz qilmaslik ma'nolariga nisbatan qo'llaniladi.

Minnatli asaldan, minnatsiz kasal yaxshi. Birovning minnatli oshidan o'zinning qattiq noning yaxshi degan ma'noni ahglatadi.

Xotin oldim boziy bilan, ishu kuchim qoziy bilan. Xotin olishni o'yin deb e'tiborsizlik qilgan kishining janjalga qolishi, befarq bo'lishi sabab uning har kun qiladigan ishi sud bilan bo'lib qolishiga nisbatan ishlatiladi.

Har qancha bilsang ham boshing bilan mashvarat qil. Odam qanchalik dono bo'lsa ham miyasi bilan fikirlab ish qilmasa xato qiladi, o'ylamasdan ish qilmaslikka nisbatan ishlatiladi.

Daraxdan meva olaman desang, nihalligidan parvarish qil. Farzandni kelajagi yaxshi, tarbiyali va jamiyatga manfaatli bo'lishi uchun bolaligidan yaxshilab tarbiyalash kerak degan ma'noga ishlatiladi.¹

Shu opamga shu yiznam. Ikki kishi bir-biriga nisbatan mos tushishi, odat, fe'llari o'xshashlikka nisbatan qo'llaniladi.

Har kallada bir xayol. (هركله ده بيرخيال) Har kim o'ziga xo'jayin bo'lishi, o'z bilarman, o'z fikriga ish qiladigan shaxshlarga nisbatan ishlatiladi.

Ko'r ko'rni qarong'uga topar. Yaxshi odam yaxshilar bilan do'st bo'lar, yomon odam yomonlarga uchrashar degan ma'nolarga ishlatiladi.

Yil qattiq kelsa hukiz hukizdan ko'radi. Kutilgan biror ish yoki holat bajarilmasligi sabab odamlar biri ikkinchisidan ko'rishi, aybdorlash jarayonlariga nisbatan qo'llaniladi.

¹ Doktor Fayzullah Aymoq "Xalq durdonalari" 40.b.

Saxiniki o‘rtada.(سخى نىكى اورته ده) Ko‘ngli ochiqning moli hammaga tegishli,Ota-Onaning narsasi farzanlari uchun o‘rtaliqda degan qarashlarga ishlatiladi.

Ko‘rpannga qarab oyoq uzat. Haddan oshmaslik, qo‘lidan keladiganga harakat qilish,iqtisodni o‘ylab ish bajarish ma‘nolariga asosan ishlatiladi.

Salla desang kalla keltiradi. O‘ta zolim,rahmsiz,ozgina bahona topsa butkul urug‘i bilan quritadigan shaxsga nisbatan ishlatiladi.

Salohlik tun tor kelmas. (صلاحلى تون تاركىلمس). Har bir ish harakatga maslahat bo‘lsa, albatta xatosiz bo‘ladi,maslahatli plan to‘g‘ri bajariladi degan ma‘nolariga nisbatan ishlatiladi.

Sen tutgan tovuqni parini yulganman. Sen bilgan gapni men allaqachon bilar edi, sen o‘qidigan kitobni men yozganman,bunaqa gaplarni oldindan oxirga yetqazganman degan qarashlarga ishlatiladi.

Cholni ko‘rsa “bo‘bam”didi. Har narsani ko‘rgandan meniki deb,o‘xshatgandan aniqlashtiraman deb xato qiladigan shaxslarga nisbatan ishlatiladi.

Shaf-shaf degandan shaftoli degan yaxshi. Biror gapni uzoqlashtirish, mavhumlashtirmasdan maqsadni aytish ma‘nolariga ishlatiladi.

Echkining o‘lgisi kelsa cho‘ponning tayog‘iga suyanadi. Biror kishi yoqtirmagan shaxs bilan o‘yin qilish ma‘nosiga nisbatan ishlatiladi.²

Qazonga bo‘lsa chumichga chiqar. Har narsa bo‘lsa bir kun aniq bo‘lishi,bo‘lgan narsa albatta chiqib kelishi, hammaga oydinlashish ma‘nolariga nisbatan ishlatiladi.

Boy keyinsa muborak bo‘lsin, kambag‘al keyinsa qayirdan topding. Puldor kishilarning e‘tiborga olinishi, hamma hurmatga bo‘lishi, kambag‘allarning ko‘zga ilinmasligi,pisandsiz bo‘lishiga nisbatan ishlatiladi.

Och dalladan qoch dalla. Bekorchi, ko‘zi do‘st bo‘lmagan shaxs bilan do‘st bo‘lmaslik,o‘zi och bo‘lgandan umid qilmaslik ma‘nolariga qo‘llanadi.

Sechqon seg‘mas iniga g‘albir bog‘lar dumiga. O‘zi sig‘magan xonaga narsani ko‘paytirish,mehmonni ko‘p chaqirish ma‘nolariga nisbatan ishlatiladi.

Mehnat qilib topganing, qandu asal totganing. Mehnat qilgan odam albatta sherin samara ko‘radi, harakat qilgan odam zarar ko‘rmaydi degan ma‘nolarni bildiradi.

Ilm olish, igna bilan quduq qozishga teng. Mehnatsiz ilm ololmaslik, ilm yo‘lidagi mashaqqatlar,og‘ir qeyinchiliklarga nisbatan ishlatiladi.

Uyga seg‘magan, elga seg‘mas. O‘z uyida yomon odam hamma uchun yomon bo‘lishi,xatokor shaxs hech kimga yoqmaslik nisbatan ishlatiladi.

Fikrimizni xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maqollar har bir til vakillari uchun muhim va ahamiyatlidir. Chunki ular hayot tajribalaridan davrlarni o‘tishi bilan sayqallanib jamiyat ichida muhim vazifa bajaradi. Bu soha barcha uchun kerakli va lozim bo‘lgan dars yoki yo‘llanma beradi. Shu nuqtadan Shimoliy Afg‘oniston O‘zbek millati ham o‘zlariga xos bo‘lgan maqollari va ularni ifoda etilishi,qanchalik tilga bo‘lgan ahamiyatini o‘rganib olishimiz mumkin.

² Doktor Fayzullah Aymoq “Xalq durdonalari”142,143,146,147,151.b.

REFERENCES

1. "Ozbek tilining izohli lug'ati" 5 jildli. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.
2. «Аттухфатуз закияту филлуғатит туркия» нашрга тайёрловчи Муталлибов С.
Тошкент. Фан. 1968. 279 Б.
3. "O`zbek tili so`zligi" Nurulloh Oltoy. Afg`oniston-Javzijon: 2007.
4. Amini, A. "SHIMOLIY AFG'ONISTON O 'ZBEKLARI NUTQIDAGI DEHQONCHILIKKA OID HARAKAT FELLARINI IFODALOVCHI BIRLIKLAR." INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL 4.1 (2023): 9-15.
5. Ahmad, Amini Aziz. "SHIMOLIY AFGONISTON OZBEKLARI NUTQIDA DEHQONCHILIK ASBOBLARI NOMLARI VA ULARNING LISONIY TALQINI." Science and innovation 1.B2 (2022): 485-490.
6. Ahmad, Amini Aziz. "The Interpretation of Agricultural Words in" Baburnama". JournalNX 7.12 (2021): 116-118.
7. Jamshid, Bo'riyev. "YOZUVCHI ERKIN AZAMNING OGZAKI NUTQQA XOS LEKSIK VA GRAMMATIK VOSITALARDAN USLUBIY FOYDALANISH MAHORATI." Евразийский журнал академических исследований 2, no. 1 (2022): 169-174.
8. Jamshid, Buriyev. "EXPRESSION OF DESCRIPTIVE ORAL UNITS IN THE WORKS OF ERKIN AZAM." In Archive of Conferences, pp. 80-83. 2021.
9. Farogat, Nurmuradova, and Buriyev Jamshid. "THE TRAGEDY OF FREEDOM." In Archive of Conferences, vol. 25, no. 1, pp. 172-174. 2021.
10. Бўриев, Жамшид. "МАХТУМҚУЛИ МИСРАЛАРИДА ГО'ЗАЛЛИК TUSHUNCHASI." NRJ 1, no. 3 (2024): 377-379.
11. Jamshid, Bo'riyev. "BIR VA KO 'P MA 'NOLI QISHLOQ XO'JALIGI TERMINLAR TAVSIFI." (2024).